Materiallar to'plami · Conference Proceedings
"ZAMONAVIY TADQIQOTLAR VA BARQAROR RIVOJLANISH" respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
04 August 2026
UDK 81
FILOLOGIYA

VERTOLYOT POREYONIMLARINING ONOMASTIK-SEMANTIK TASNIFI

Mirzohid Nosirjon o'g'li Muhammadaliyev*
Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti
✉ bekhmirzokhid27@mail.ru

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada vertolyot nomlarining kelib chiqishi, nomlanish tamoyillari hamda ularning leksik-semantik xususiyatlari tahlil qilinadi. Vertolyot nomlari akronim, eponim, metaforik va numeronim nomlanish usullari asosida tasniflanib, ularning lingvistik hamda nominativ xususiyatlari yoritiladi.

Kalit so'zlar

vertolyot nomlari, poreyonim, onomastika, leksik-semantik tahlil, akronim, eponim, metafora.

DOI: 10.5281/zenodo.21743175

KIRISH

Transport vositalari nomlari zamonaviy onomastikaning muhim tadqiqot obyektlaridan biri hisoblanadi. Xususan, vertolyot nomlari ularning vazifasi, texnik xususiyatlari, yaratuvchisi hamda ramziy ma'nolarini aks ettirishi bilan ajralib turadi. Ushbu maqolada vertolyot nomlarining kelib chiqishi, nomlanish tamoyillari va leksik-semantik xususiyatlari lingvistik nuqtayi nazardan tahlil qilinadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Vertolyot poreyonimlari ham boshqa transport nomlari singari onomastik va semantik xususiyatlariga ko'ra turli guruhlarga ajratiladi. Ularning nomlanishida akronim, eponim, metaforik va numeronim modellar faol qo'llanilib, har bir guruh o'ziga xos nominativ hamda semantik belgilar bilan tavsiflanadi.

Vertolyot [r. верт(еться) – aylanmoq + лет(ать) – uchmoq] Tikka uchib chiqib, yerga tikka qo'nadigan va osmonda muallaq tura oladigan, parrakli, havoda og'ir uchish apparati.[1,B.691]

Yuqoriga ko'tarila oladigan dastlabki vertolyot (gelikopter) modelini rus olimi M.V. Lomonosov 1754-yilda yasalgan. Vertolyotlarni ko'plab ishlab chiqarish sobiq Ittifoqda 1951-yilda boshlandi. M.L.Milning "Mi-4", "Mi-6", "Mi-8", "Mi-10", "Mi-12" vertolyotlari, keyinchalik N.I.Kamovning "Ka-15", "Ka-18", "Ka-25", "Ka-26", "Ka-50" "Uchuvchi akula" harbiy vertolyotlar va boshqa rusumli vertolyotlar ishlab chiqarila boshlanadi. Hozir turli-tuman rusumli vertolyotlarni ishlab chiqarish taraqqiy etdi.[2, B.436]

Lekin birinchi barqaror vertolyot 1922-yilgacha paydo bo'lmagan. Uning yaratuvchisi Qo'shma Shtatlarga hijrat qilgan rus ixtirochisi Georgiy Botezat edi.[3]

1. Akronim – bu bir nechta so'zlarni qisqartirib, yangi so'z (nom) hosil qilish usuli. Akronimlar bilan hosil qilingan vertolyot nomlari. Bunday nomlar – birikma yoki texnik atamalarning bosh harflari asosida yaratilgan nomlardir. Akronim orqali vertolyotning to'g'ridan-to'g'ri texnik tavsifi yoki vazifasi bildirilgan, raqamlar esa model yoki seriyani anglatadi. Akronimlar orqali vertolyotning vazifasi, maqsadi va texnik xususiyatlari ifodalanadi: UH-60-ko'p maqsadli vertolyot, CH-47-yuk tashuvchi vertolyot.

AH-64 Apache – "AH"-Attack Helicopter (jangovar vertolyot) qisqartmasi, model raqami-*64*. Nom texnik xususiyatni va vazifasini ramziy tarzda ifodalagan.

CH-60 Chinook – *"CH"*-Cargo Helicopter (yuk tashuvchi vertolyot),*60*- raqam seriyani bildiradi. Nom vertolyotning vazifasini qisqacha aks ettiradi.

MH-60 Seahawk – *"MH"*- multi-mission helicopter (ko'p maqsadli). Nom texnik xususiyat va vazifani ko'rsatadi.

OH-58 Kiowa – "*OH*"-observation helicopter (kuzatuv vertolyoti). Nom vertolyotning funksiyasini aniq ko'rsatadi.

UH-60 Black Hawk – *"UH"*- utility helicopter, ya'ni ko'p funksiyali vertolyot. Nom texnik xususiyat va modelni ifodalaydi.

SH-60 Sea Hawk – *"SH"*-submarine hunter yoki sea helicopter; suv osti dushmanga qarshi vazifa uchun mo'ljallangan bo'lib, dushman suv osti kemalarini aniqlash va kuzatish imkonini beradi.

2. Eponim – bu biror shaxs yoki joy nomi asosida yaratilgan nomdir. Eponim – transport markalari yoki modellari bo'lib, ular asoschilarining va mashhur shaxslarning ism/familiyasidan olingan. Bular antroponimik eponimlar deb ataladi. Antroponik (shaxs nomlari) eponimlar bilan atalgan vertolyot nomlari.

Mi (Mu) Mi-8, Mi-17,Mi-24, Mi-26, Mi-35,Mi-38,Mi-54.– konstruktor M.L.Mil familiyasidan olingan. Shaxs nomi texnik indeksga, seriyali belgiga aylangan.

Bu vertolyotini taniqli sovet aviakonstruktori Mixail Mi loyihalashtirgan. Shuning uchun ular Mi deb nom olgan. 1960-yildan boshlab Mixail Mi yangi vertolyot loyihasi ustida ishlay boshladi. Bu samolyot Mi-8 nom oladi.

Mi-8 vertolyotining dastlabkisi 1961-yilda sinovdan o'tkaziladi. The Military Balance ma'lumotlariga ko'ra 2023-yilda O'zbekistonda jami 52 dona Mi-8 vertolyotlari bo'lgan.

O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirli ixtiyoriga to'rta Mi-35M vertolyoti yetkazib berildi. Ayni vaqtda vertolyotlar Toshkent xalqaro aeroportida. Xabar qilinishicha, Rossiya tomoni umumiy hisobda o'n ikkita jangovar va transport vertolyotlari yetkazishi lozim. Eslatib o'tamiz, birinchi to'rtta vertolyot 2019-yil to'rtinchi choragida yetkazib berilgandi.

Ka – konstruktor I.Kamov familiyasining qisqartmasi sifatida shakllangan. Modellari: *Ka-15, Ka-18, K-25, Ka-26, Ka-52, Ka-27, Ka-50.*

Vertolyotlar keyinchalik N.I.Kamovning "Ka-15, Ka-18, K-25, Ka-26, Ka-50" "Uchuvchi akula" harbiy vertolyotlar va boshqa rusumli vertolyotlar ishlab chiqarila boshlandi. Hozir turli-tuman rusumli vertolyotlarni ishlab chiqarish taraqqiy etgan.

Kamov Ka-26,Ka-27,Ka-32, Ka-50, Ka-52– vertolyotni yaratuvchi muhandis Nikolay Ilyich Kamovga bag'ishlangan.

Ko'p maqsadli *Ka-27* Kamov tomonidan ishlab chiqarilgan, turli xil nomlarga ega *Ka-27, Ka-28, Ka-29* va *Ka-32* deb nomlangan bir nechta harbiy va fuqarolik samolyotlari uchun asosiy samolyotdir. Ka-27, o'z navbatida, Ka-25 vertolyotlarining modifikatsiyasi hisoblanadi.[4]

Sikorsky R-4, Sikorsky S-76, UH-60 – vertolyot nomi dizayner Igor Ivanovich *Sikorsky* familiyasidan olingan. Bu nom vertolyotning texnik merosini, yaratuvchining shaxsiy obro'sini va ilmiy merosini ta'kidlaydi. Igor Sikrosky asoschisi bo'lgan kompaniya va uning texnologik imzosini aks ettiradi.

Bell – Lawrence Dale Bell Modellari: Bell-206, Bell-47.

Hughes – Howard Hughes Model: Hughes OH-6 Cayuse

3. Metaforik (so'z) asosidagi vertolyot nomlari.

Tarixiy yoki etnik metafora: AH-64 Apache – "Apache" nomi hind qabilasidan olingan. Apache qabilasi tarixda jasur jangchilar va strategik kurashchi sifatida tanilgan. Vertolyot ham jangovar, tajovuzkor va tezkor bo'lib, kurashchi xususiyatini aks ettiradi. Vertolyotning qobiliyati insoniy yoki tarixiy kurashchi sifatida ramziy tarzda ifodalangan.

Hayvon nomlari bilan atalgan vertolyotlar. Zoomorfik (nomlash) – samolyotga hayvon yoki qush nomi berish orqali, uning tezlik, kuch, chaqqonlik, ustunlik kabi xususiyatlarni metaforik tarzda ifodalash usulidir. Zoomorfik nomlar ingliz tili onomastikasida eng mahsuldor semantik qatlamdir.

Vertolyot xususiyatlarini hayvon ramzi orqali ko'rsatiladi, ular esa tezkorlik, xavf-xatar va agressivlikni

bildiradi. Nom orqali dushmanga psixologik ta'sir ko'rsatadi.

Agusta Westland AW109 "Lynx" –lynx-buzoq mushugi. Lynx o'ta sezgir, chaqqon va tezkor hayvon. AW109 vertolyotlari tezkor va ixcham transport vertolyoti sifatida mashhur. Bu nom vertolyotning chaqqonligi va ixchamligini ta'kidlaydi.

Bell AH-1 Cobra – Cobra hayvon nomi (ilon). Ilon tez va xavfli hayvon sifatida ma'lum, shuning uchun ham vertolyotlar shunday nom bilan nomlangan. Bu turdagi vertolyot ham tor, tez va o'ta jangovar xususiyatga ega. Bu nom orqali jangovar qobiliyatni, chaqqonlik va xavf-xatar ramzini ifodalangan.

Bell 407 "Panther" (pantera) – pantera kuchli, sezgir vat inch vaqtida ham xavfli bo'lgan hayvon hisoblanadi. Vertolyot ham tezkor, ixcham va jangovar xususiyatga ega. Bu nom vertolyotning kuch, chaqqonlik, ko'rinmaslik (stealth) xususiyatini ifodalaydi.

Kamov Ka-50 "Black Shark" – shark-akula. Akula kuchli, doimiy va predator sifatida tanilgan. Bu vertolyotlar agressiv va tezkordir. Bu nom orqali vertolyotni jang maydonida xavfli ekanligini bildiradi.

Sikorsky UH-60 "Black Hawk" – hawk-burgut. Burgutlar yuqoridan aniq va tez hujum qiladigan qushlar sifatida tanilgan. Vertolyot ham yuqoridan nazorat va tezkor hujum imkoniyatini beradi. Nom vertolyotning jangovar va strategik afzalliklarini aks ettiradi, ya'ni "havodagi yirtqich" ramidir.

Vazifa yoki xususiy metafora:

MQ-1 Predator – predator -yirtqich hayvon. Vertolyot (dron) dushmanni aniqlash va hujum qilishda predator kabi harakat qiladi. Nom vertolyotning strategik va hujum qobiliyatini yirtqich hayvon sifatida metaforik ifoda qilingan.

4. Numeronim (raqamlar) asosida nomlangan vertolyot nomlari. Texnik xususiyatiga raqam orqali ishora qilinadi. Raqamlar asosan texnik model, seriya yoki ishlab chiqarish tartibini bildiradi. Ular vertolyotning boshqa modellar bilan farqlashni osonlashtiradi. Numeronimlar vertolyotni xususiyatini ko'rsatadi.

Airbus H125, Airbus H130 – yengil, yagona rotorli vertolyot bo'lib, H-seriya, 125- raqamli identifikatsiya sifatida ishlatilgan.

Uzbekistan Helicopters tomonidan to'rtta Airbus (ikkitadan H125, H130) vertolyotlarini xarid qilish prezidentning 30-apreldagi qarori bilan belgilab berilgan edi.

Ah-64 – "64"-model seriyasi. Raqam vertolyotning texnik modelini bildiradi.

AW139 – AW-Agustra Westland, 139-model seriyasi. Raqam vertolyotning texnik modelini bildiradi.

CH-47 – CH-cargo helicopter, 47-model seriyasi. Raqam vertolyotning texnik identifikatori.

Boeing T1400 – T-tandem rotorli-ikki katta rotor joylashgan degan ma'noni anglatadi, 1400 – maksimal ko'tarilish og'irligi yoki toifaviy massani anglatadi.

Xitoyda United Aircraft kompaniyasining Boying T1400 Tandem Rotor uchuvchisiz vertolyoti ilk parvozni muvaffaqiyatli amalga oshirdi. Qurilmaning eng yuqori uchish og'irligi 1400 kilogrammni tashkil qiladi, parvoz vaqti –sakkiz soatgacha, balandligi – 6500 metr, maksimal tezlik – soatiga 180 kilometr.[5]

R44 – R-Robinso kompaniyasi, 44-model raqami. Raqam orqali vertolyotning texnik xususiyati va model farqi ko'rsatiladi.

UH-60 – "60"-model seriyasi. Raqam vertolyotni boshqa modellar bilan farqlashga xizmat qiladi.

XULOSA

Tadqiqot natijalari vertolyot poreyonimlari onomastik va semantik jihatdan rang-barang tuzilishga ega ekanligini ko'rsatdi. Ularning nomlanishida akronim, eponim, metaforik va numeronim modellar faol qo'llanilishi aniqlandi. Mazkur tasnif vertolyot poreyonimlarining nominativ xususiyatlarini ochib berish bilan birga, transport onomastikasi bo'yicha keyingi tadqiqotlar uchun nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbek tilining izohli lug'ati. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashiryot-matbaa ijodiy uyi, 2023. – 5-J. – B. 691.
2. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. –2-ж. –Б.436.

3. https://share.google/sgVuNwII1ZY2ki1Za
4. https://share.google/KbLdXzZnlu7cnoA6x
5. https://share.google/5L2rWKkCLcB0HzfRg